

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH	162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB Olish.....	169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam	
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH.....	174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ	179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза	
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI	183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH	189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI	200
Safaraliyev Suyun Sheraliyevich	
RESEARCH AND DESIGN OF ANAEROBIC REACTORS FOR EFFECTIVE FERMENTATION OF AGRICULTURAL RESIDUE	204
Dilbar Ramazonova	
"TARMOQLARDAN FOYDALANISH" BOBINI O'QITISHDA MUALLIFLIK TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	209
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchov	
RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	216
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH JARAYONLARINING AMALDAGI HOLATI	223
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIYAVIY TAHLIL AMALIYOTINING MUAMMOLARI VA UNIVIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	232
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi	
SURXONDARYODA YASHIL TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	240
Mamatov Sardor, Rashidova Nargiza	
XORIJIY MAMLAKATLARDA UY-JOY NARXLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH TAJRIBASI... ..	246
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TOMORQA XO'JALIKLARI FAOLIYATIDAN KELADIGAN DAROMADLARNI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI	252
U.U. Nurullayev	
ECONOMIC EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN WAREHOUSE OPERATIONS.....	257
Abdulazizova Shakhrixoda Azizbek kizi	
IXTISOSLASHUV VA KONSENTRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA SUT MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING SAMARADORLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	262
Sherbekova Ariuxan Rashidovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITAL TARKIBINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARIGA TA'SIRI TAHLILI.....	266
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
ОПТИМИЗАЦИЯ РЕЖИМОВ ВЫРАБОТКИ КИСЛОРОДА И СЖАТОГО ВОЗДУХА ДЛЯ СНИЖЕНИЯ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ЧЕРНОВОЙ МЕДИ.....	271
T.C. Камалов, X.T. Ташева, Д.А. Ишанова, У.И. Абляев	
SOLIQ SIYOSATINING INVESTITSION FAOLLIKKA TA'SIRI.....	279
Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Zarif Oripovich Axrorov	
SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI OMMALASHTIRISH VA JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	284
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	

SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI OMMALASHTIRISH VA JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

Seitnazarov Baxadir Muratbaevich

seitnazarovbaxadir@gmail.com

TSEU mustaqil tadqiqotchisi

ABSTRACT. This article examines the improvement of mechanisms for state financial support for the introduction of water-saving technologies in the Republic of Karakalpakstan based on a comprehensive scientific approach to the efficient use of water resources. The economic, environmental, and social significance of improving water-use efficiency in agriculture under conditions of climate change, water scarcity, and land degradation is thoroughly analyzed.

The study substantiates the potential of water-saving technologies, particularly drip and sprinkler irrigation systems, to reduce water consumption, increase crop yields, and lower production costs. At the same time, the effectiveness of these technologies is comparatively analyzed with international experience based on data from the Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO) and the World Bank.

The article assesses the current state of financial instruments applied by the government, including subsidies, concessional loans, grants, and state programs, and analyzes their economic efficiency and coverage. While the existing support mechanisms are producing positive results, the study identifies further opportunities to enhance their institutional effectiveness and practical coverage.

The study also identifies priority areas for improving the financial support system. Particular attention is paid to optimizing subsidy mechanisms, expanding long-term concessional lending, attracting investment through public-private partnerships, and introducing a digital monitoring system.

The research findings have important scientific and practical significance for the rational use of water resources, improving agricultural efficiency, and ensuring food security in the Republic of Karakalpakstan. They may also serve as a methodological basis for further improving the state agrarian and financial policy.

Keywords: water-saving technologies, state financial support, agriculture, Republic of Karakalpakstan, subsidies, concessional loans, water resources, economic efficiency, drip irrigation.

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada suv resurslaridan samarali foydalanish sharoitida Qoraqalpog'iston Respublikasida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kompleks ilmiy yondashuv asosida takomillashtirish masalalari o'rganiladi. Iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va yerlarning degradatsiyaga uchrashi sharoitida qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligini oshirishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyati chuqur tahlil etilgan.

Tadqiqotda suv tejoychi texnologiyalar, xususan, tomchilatib va purkagichli sug'orish tizimlarini joriy etish natijasida suv sarfini kamaytirish, hosildorlikni oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarning samaradorligi BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon banki ma'lumotlari asosida xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Maqolada davlat tomonidan qo'llanilayotgan moliyaviy vositalar — subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, grantlar va davlat dasturlarining amaldagi holati baholanib, ularning iqtisodiy samaradorligi va qamrovi tahlil qilingan. Mavjud qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ijobiy natijalar berayotgani bilan birga, ularning institutsional samaradorligini va amaliy qamrovini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlangan.

Shuningdek, tadqiqot doirasida moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Jumladan, subsidiyalash mexanizmini optimallashtirish, uzoq muddatli imtiyozli kreditlash hajmini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb qilish hamda raqamli monitoring tizimini joriy etishga alohida e'tibor



qaratilgan.

Tadqiqot natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasida suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, davlatning agrar-moliya siyosatini yanada takomillashtirishda uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: suv tejovchi texnologiyalar, davlat moliyaviy ko'magi, qishloq xo'jaligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, sub-sidiyalar, imtiyozli kreditlar, suv resurslari, iqtisodiy samaradorlik, tomchilatib sug'orish.

АННОТАЦИЯ. В данной статье исследуются вопросы совершенствования механизмов государственной финансовой поддержки внедрения водосберегающих технологий в Республике Каракалпакстан на основе комплексного научного подхода к эффективному использованию водных ресурсов. Проведен углубленный анализ экономического, экологического и социального значения повышения эффективности водопользования в сельском хозяйстве в условиях изменения климата, дефицита водных ресурсов и деградации земель.

В исследовании обоснованы возможности снижения расхода воды, повышения урожайности и уменьшения себестоимости продукции за счет внедрения водосберегающих технологий, в частности систем капельного и дождевального орошения. Наряду с этим эффективность данных технологий сопоставлена с международным опытом на основе данных Продовольственной и сельскохозяйственной организации Объединенных Наций (ФАО) и Всемирного банка.

В статье дана оценка современному состоянию применяемых государством финансовых инструментов, включая субсидии, льготные кредиты, гранты и государственные программы, а также проанализированы их экономическая эффективность и охват. Несмотря на положительные результаты действующих механизмов поддержки, выявлены дополнительные возможности для повышения их институциональной эффективности и расширения практического охвата.

Кроме того, в рамках исследования определены приоритетные направления совершенствования системы финансовой поддержки. Особое внимание уделено оптимизации механизма субсидирования, расширению объемов долгосрочного льготного кредитования, привлечению инвестиций на основе государственно-частного партнерства, а также внедрению системы цифрового мониторинга.

Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для рационального использования водных ресурсов, повышения эффективности сельского хозяйства и обеспечения продовольственной безопасности в Республике Каракалпакстан и могут служить методологической основой для дальнейшего совершенствования государственной аграрно-финансовой политики.

Ключевые слова: водосберегающие технологии, государственная финансовая поддержка, сельское хозяйство, Республика Каракалпакстан, субсидии, льготные кредиты, водные ресурсы, экономическая эффективность, капельное орошение.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda suv resurslarining tanqisligi, iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarning keskinlashuvi qishloq xo'jaligi sohasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, yog'ingarchilikning notekis taqsimlanishi, haroratning oshishi va suv resurslarining qisqarishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, suv resurslariga yuqori darajada bog'liq bo'lgan hududlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi mavjud ekologik vaziyat, jumladan, Orol dengizi fojiasi oqibatlari, yerlarning sho'rlanishi va suv tanqisligi qishloq xo'jaligi sohasi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillar sifatida qaralmoqda. Sug'oriladigan yerlarning katta qismi turli darajada sho'rlangan bo'lib, bu hosildorlikning pasayishi va mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, suv resurslarining notekis taqsimlanishi hamda mavjud sug'orish infratuzilmasini yanada modernizatsiya qilish zarurati ushbu masalaning dolzarbligini oshirmoqda.

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi dunyodagi umumiy suv resurslarining 70 foizdan ortig'ini iste'mol qiladi. Binobarin, suvdan samarali foydalanish va uni tejamkor texnologiyalar asosida boshqarish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali suv iste'molini 30–50 foizga qisqartirish va hosildorlikni 20–30 foizga oshirish mumkin.

Shu munosabat bilan Qoraqalpog'iston Respublikasida suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, xususan, tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlarini rivojlantirish qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Biroq, ushbu texnologiyalarni joriy etish muayyan miqdordagi boshlang'ich investitsiyalarni talab etadi, bu esa fermer xo'jaliklari uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyojni yuzaga keltiradi.

Shu bois davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Xususan, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, grantlar hamda davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb qilish suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, suv resurslaridan samarali foydalanish va ularni iqtisodiy jihatdan asoslangan mexanizmlar orqali boshqarish nafaqat Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'i samaradorligini oshirishga, balki mintaqaviy barqaror rivojlanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Shu asosda tadqiqotning:

obyekti – qishloq xo'jaligidagi suv resurslari va irrigatsiya tizimlari;

predmeti – suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari;

maqsadi – davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot suv resurslaridan oqilona foydalanish va qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida keng o'rganilgan. Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, cheklangan suv resurslari sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish innovatsion sug'orish texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayanadi.

Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, tomchilatib sug'orish texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda suv sarfini o'rtacha 30–50 foizga kamaytirish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar suvni to'g'ridan-to'g'ri o'simlik ildiziga yetkazib berish orqali suv yo'qotilishini kamaytiradi va buning natijasida agrotexnik jarayonlar samaradorligi oshadi.

Xalqaro suv xo'jaligi instituti hisobotlarida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hosildorlikni 20–40 foizga oshirish va ishlab chiqarish tannaxsini kamaytirish imkonini berishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shu bilan birga, mazkur institutning ilmiy-tadqiqot ishlarida suv resurslaridan oqilona foydalanish agrar tarmoq barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim vositasi sifatida e'tirof etilgan. Ushbu manbalarda irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish orqali suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligi ta'kidlangan.

Mahalliy iqtisodiy tadqiqotlarda davlatning moliyaviy siyosati suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi. Xususan, fermer xo'jaliklarini subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va grantlar hisobidan qo'llab-quvvatlash suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiruvchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda mavjud moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarining qamrovini yanada kengaytirish hamda ulardan foydalanish mexanizmlarini soddalashtirish imkoniyatlari mavjudligi qayd etilgan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilgan bo'lsa-da, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligini har tomonlama baholash uchun bir qator ilmiy usullardan foydalanildi.

Avvalo, tizimli tahlil usuli asosida suv resurslaridan yagona iqtisodiy tizim doirasida foydalanish jarayoni o'rganildi. Ushbu yondashuv orqali suv resurslari, texnologiyalar, moliyaviy vositalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'zaro bog'liqligi aniqlandi.

Statistik tahlil usulidan foydalangan holda so'nggi yillardagi suv iste'moli dinamikasi, suvdan foydalanish unumdorligi hamda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish ko'rsatkichlari o'rganildi. Bu mavjud tendensiyalarni aniqlash va ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali xalqaro tajriba va mahalliy amaliyot o'zaro solishtirildi. Xususan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llanilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi baholanib, ular asosida tegishli takliflar ishlab chiqildi.

Shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni baholash usullaridan foydalangan holda suv tejovchi texnologiyalarni



joriy etishning foyda va xarajat ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Bunda investitsiyalar samaradorligi, xarajatlarni qoplash muddati va qo'shimcha daromad ko'rsatkichlari hisobga olindi.

Mazkur uslubiy yondashuvlar majmuasi tadqiqotning ilmiy asosligini ta'minlash, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy va moliyaviy jihatlarini har tomonlama baholashga xizmat qildi hamda maqola matnini tayyorlash jarayonida yordamchi vosita sifatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan 10 foizgacha foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish borasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, ularning qamrovi va samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. So'nggi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari mazkur yo'nalishning rivojlanishiga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, ayrim tizimli masalalarni bosqichma-bosqich takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.


Asosiy masalalar quyidagilardan iborat:

- suv tanqisligi va uning notekis taqsimlanishi – mavjud sug'orish infratuzilmasining ayrim qismlarini modernizatsiya qilish zarurati sababli suv yo'qotishlari 25–30 foizga yetadi;
- yuqori boshlang'ich investitsiya xarajatlari – tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish uchun har bir gektarga o'rtacha 1200–2500 AQSh dollari miqdorida mablag' talab etiladi;
- moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati – kichik fermer xo'jaliklarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirish muhim ahamiyatga ega;
- moliyaviy va texnologik savodxonlikni oshirish zarurati – suv tejovchi texnologiyalarning iqtisodiy va amaliy samaradorligi bo'yicha xabardorlikni yanada kengaytirish talab etiladi;
- axborot va maslahat xizmatlarini rivojlantirish zarurati – innovatsion texnologiyalarni joriy etishda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Tomchilatib sug'orish ulushi (%)	8	11	15	19	22
Suvni tejash (%)	20	25	30	35	40
Hosildorlikning o'sishi (%)	10	15	18	22	25
Subsidiyalar ulushi (%)	20	25	28	32	35

Ko'rsatkichlar dinamikasi shuni ko'rsatadiki, suv tejovchi texnologiyalarning joriy etilishi natijasida suvdan foydalanish samaradorligi ortib bormoqda va hosildorlik barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Shu bilan birga, ularni joriy etish sur'atlarini qishloq xo'jaligi ehtiyojlaridan kelib chiqib yanada jadallashtirish imkoniyatlari mavjud.

Moliyaviy yordam tuzilmasi



Taqdim etilgan doiraviy diagramma suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun moliyaviy resurslar tarkibini aks ettiradi hamda ularning o'zaro nisbatini baholash imkonini beradi. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, eng katta ulush davlat subsidiyalariga to'g'ri keladi — 40 foiz. Bu esa agrar tarmoqda, ayniqsa, yuqori


boshlang'ich investitsiyalarni talab qiluvchi texnologiyalarni joriy etishda davlat moliyaviy ko'magining muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. OECD tadqiqotlariga ko'ra, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash qishloq xo'jaligiga yo'naltiriladigan investitsiyalar tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi muhim manba imtiyozli kreditlar bo'lib, ularning ulushi 30 foizni tashkil etadi. Bu suv tejovchi texnologiyalarni moliyalashtirishda bank-moliya tizimining faol ishtirokini ko'rsatadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda imtiyozli kreditlash mexanizmlari investitsion faollikni oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Xususiy investitsiyalar ulushi 20 foizni tashkil etib, bu sohada xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur holat, asosan, investitsion risklar darajasi hamda investitsiyalarning uzoq muddatli rentabelligi bilan bog'liq omillar bilan izohlanadi.

Xalqaro grantlarning ulushi 10 foizni tashkil etadi. Bu donor tashkilotlarning mazkur yo'nalishdagi ishtiroki mavjudligini, shu bilan birga, ushbu moliyalashtirish manbasining ulushini yanada kengaytirish imkoniyatlari borligini ko'rsatadi.

Suvni tejash va hosildorlik



Taqdim etilgan chiziqli diagrammada suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish natijasida suvni tejash darajasi va hosildorlikning o'sishi o'rtasidagi dinamik bog'liqlik aks ettirilgan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, har ikkala ko'rsatkich ham 2020–2024-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega.

Xususan, suvni tejash darajasi 25 foizdan 40 foizgacha oshgan bo'lsa, hosildorlik o'sishi 12 foizdan 25 foizgacha yetgan. Demak, suv tejovchi texnologiyalarning joriy etilishi natijasida resurslardan foydalanish samaradorligi ortib bormoqda. Ushbu natijalar Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hamda Xalqaro suv xo'jaligi instituti tadqiqotlarida qayd etilgan ilmiy xulosalarga mos keladi.

Diagramma tahlili shuni ko'rsatadiki, suvni tejash darajasi va hosildorlikning o'sishi o'rtasida ijobiy bog'liqlik kuzatiladi. Ya'ni, suvdan samarali foydalanish nafaqat resurslarni tejash, balki ishlab chiqarish natijalarini yaxshilash imkonini ham beradi. Bu agrar sohada innovatsion sug'orish texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, o'sish sur'atlarining yildan-yilga ortib borayotgani davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, jumladan, subsidiyalar va imtiyozli kreditlarning ijobiy samara berayotganini ko'rsatadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, sug'orish texnologiyalariga investitsiya kiritish nafaqat suvni tejash, balki fermerlar daromadini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, diagramma natijalari suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish qishloq xo'jaligi sohasi samaradorligini oshirish, suv resurslarini tejash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'layotganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy izlanishlar, statistik tahlillar va diagrammalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki,



Qoraqalpog'iston Respublikasida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Cheklangan suv resurslari va ekologik muammolar sharoitida ushbu texnologiyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish suv sarfini o'rtacha 25–40 foizga qisqartirish, hosildorlikni esa 15–25 foizga oshirish imkonini beradi. Bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadal rivojlantirishga xizmat qilib, fermer xo'jaliklari daromadlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, amaldagi moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelgusida ushbu mexanizmlarning qamrovi va samaradorligini yanada oshirish orqali mazkur yo'nalishdagi ijobiy natijalarni mustahkamlash imkoniyatlari mavjud.

1. Qoraqalpog'iston Respublikasida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligini baholash maqsadida suvdan foydalanish samaradorligi, davlat budjeti xarajatlarining rentabelligi va suv resurslarini tejash ko'rsatkichlarini integratsiyalashgan *Suvdan foydalanishning moliyaviy samaradorligi indeksi***ni joriy etish bo'yicha taklif ishlab chiqildi. Ushbu indeks asosida davlat subsidiyalarini ajratishning tabaqalashtirilgan mexanizmi ham taklif etildi.**

Mazkur taklif vazirlik tomonidan hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish bo'yicha o'z vazifalarini bajarish jarayonida inobatga olindi va amaliyotga joriy etildi. Ushbu taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-apreldagi 206-son qarori bilan tasdiqlangan **“Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejaydigan irrigatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to'g'risida”gi nizamni ishlab chiqishga xizmat qildi.**

2. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni moliyalashtirish uchun davlat budjeti mablag'lari, tijorat banklari kreditlari va xalqaro iqlim jamg'armalari mablag'larini birlashtirgan aralash moliyalashtirish modelini yaratish, shuningdek, Orolbo'yi mintaqasida suv infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqildi.

Mazkur taklif vazirlik tomonidan davlat moliyasini boshqarish sohasida o'ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida inobatga olindi va amaliyotga joriy etildi. Natijada 2025-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalarning umumiy hajmi 2024-yilga nisbatan **31,5 foizga oshdi.**

3. Qoraqalpog'iston Respublikasida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida davlat moliyaviy ko'magini ajratishda masofaviy monitoring, geografik axborot tizimlari (GIS) va sun'iy yo'ldosh ma'lumotlariga asoslangan “Natijaga asoslangan subsidiyalar berish” mexanizmini joriy etish bo'yicha taklif ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan mexanizm subsidiyalar ajratilishini suv iste'molining amalda qisqarishi bilan bog'lashni nazarda tutadi.

Mazkur taklif vazirlik tomonidan davlat budjeti ijrosi bilan bog'liq vazifalarni bajarish jarayonida inobatga olindi va amaliyotga joriy etildi. Natijada 2025-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 109 ta qishloq xo'jaligi korxonasi va fermer xo'jaligiga suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun **28,8 milliard so'm** miqdorida subsidiya va boshqa moddiy rag'batlantirish mablag'lari ajratildi.

4. Raqamli monitoring, geografik axborot tizimlari (GIS) va masofaviy zondlash texnologiyalari asosida investitsiyalarni boshqarish tizimini tashkil etish orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligida investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha taklif ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan tizim investitsiya loyihalarini samaradorligini oshirish va qishloq xo'jaligi resurslaridan foydalanishni optimallashtirishga qaratilgan.

Ushbu taklif vazirlik tomonidan barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va raqamlashtirish bo'yicha milliy siyosatni amalga oshirish doirasidagi vazifalarni bajarish jarayonida inobatga olindi va amaliyotga joriy etildi. Natijada 2025-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida umumiy qiymati **15,8 trillion so'mlik investitsiya loyihalarini** amalga oshirish uchun **123 ta tadbirkorlik subyektiga 1547,6 gektar yer maydoni** to'g'ridan-to'g'ri ajratildi.

O'rganish natijalariga ko'ra, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni yanada jadallashtirish bo'yicha quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Subsidiyalar tizimini takomillashtirish.

Davlat subsidiyalarini ajratish mexanizmlarini yanada soddalashtirish va ularning qamrovini kengaytirish maqsadga muvofiq. Subsidiyalarni bevosita texnologiyalarni xarid qilishga yo'naltirish orqali fermer xo'jaliklarining dastlabki investitsiya yukini kamaytirish imkoniyati mavjud.

2. Uzoq muddatli imtiyozli kreditlashni kengaytirish.

Suv tejovchi texnologiyalar uzoq muddatli investitsiyalarni talab qilganligi sababli, 5–10 yil muddatga past foizli kreditlar ajratish amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu kichik va o'rta fermer xo'jaliklarining moliyaviy imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

3. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini rivojlantirish.

Irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilishda xususiy sektor ishtirokini yanada rag'batlantirish maqsadga muvofiq. Davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb qilish orqali suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish jarayonini jadallashtirish mumkin.

4. Moliyaviy savodxonlikni oshirish.

Fermer xo'jaliklari uchun maxsus o'quv dasturlari va treninglarni tashkil etish orqali moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu kredit mablag'laridan oqilona foydalanish va investitsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

5. Raqamli monitoring va boshqaruv tizimlarini joriy etish.

Suv resurslarini hisobga olish va nazorat qilishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Masofaviy monitoring, sensor tizimlari va geografik axborot tizimlari (GIS) texnologiyalaridan foydalanish suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

6. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish orqali grantlar va investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini oshirish mumkin.

Umuman olganda, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi sohasi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi natijadorlik davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi hamda institutsional mexanizmlarni izchil takomillashtirish bilan bevosita bog'liq. Ushbu tizimni kompleks yondashuv asosida yanada takomillashtirish mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyot va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi PQ-250-son "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025–2028-yillarga mo'ljallangan dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-apreldagi 206-son "Agrar va oziq-ovqat sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 1-ilova: "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarning suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to'g'risida"gi Nizom. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.
4. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Agricultural Water Management. – Rome: FAO.
5. World Bank. Uzbekistan General Water Security Assessment. – Washington, D.C.: World Bank, 2024.
6. World Bank. Uzbekistan: Policy Perspectives for Irrigation and Drainage Sector Reform. – Washington, D.C.: World Bank, 2024.
7. World Bank. Uzbekistan: National Irrigation and Energy Efficiency Improvement Project. – Washington, D.C.: World Bank, 2025.
8. Asian Development Bank. Climate Adaptive Water Resources Management in the Aral Sea Basin Sector Project. Project No. 53120-001. – Manila: Asian Development Bank, 2022.
9. Asian Development Bank. Resilient Amu Darya River Basin Sector Development Program. Project No. 58028-001. – Manila: Asian Development Bank, 2024.
10. Ibragimov N., Evett S.R., Esanbekov Y., Kamilov B.S., Mirzaev L., Lamers J.P.A. Water use efficiency of irrigated cotton in Uzbekistan under drip and furrow irrigation // *Agricultural Water Management*. – 2007. – Vol. 90, № 1–2. – P. 112–120. – DOI: 10.1016/j.agwat.2007.01.016.
11. Bekchanov M., Lamers J.P.A., Martius C. Pros and Cons of Adopting Water-Wise Approaches in the Lower Reaches of the Amu Darya: A Socio-Economic View // *Water*. – 2010. – Vol. 2, № 2. – P. 200–216. – DOI: 10.3390/w2020200.
12. Djumaboev K., Hamidov A., Anarbekov O., Gafurov Z., Tussupova K. Impact of Institutional Change on Irrigation Management: A Case Study from Southern Uzbekistan // *Water*. – 2017. – Vol. 9, № 6. – Art. 419. – DOI: 10.3390/w9060419.
13. Hamidov A., Kasymov U., Djumaboev K., Paul C. Rebound Effects in Irrigated Agriculture in Uzbekistan: A Stakeholder-Based Assessment // *Sustainability*. – 2022. – Vol. 14, № 14. – Art. 8375. – DOI: 10.3390/su14148375.
14. OECD. Anticipating and Monitoring Water Risks for Agriculture // *OECD Food, Agriculture and Fisheries Papers*. – Paris: OECD Publishing, 2026. – № 226. – DOI: 10.1787/24939e6a-en.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Qoraqalpog'iston Respublikasini iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan rasmiy material. – Toshkent, 2024.
16. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: rasmiy statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2025.
17. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi. Qoraqalpog'iston Respublikasining 2025-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy holati: statistik axborotnoma. – Nukus, 2026.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100